ISNN 3030-3907

2026
JUNE
ISSUE - 6
VOLUME -6

DEVELOPMENT OF SCIENCE

scientific journal



Development of science

Ilmiy jurnal

IYUN 2026
Issue - 6, VOLUME – 6

ISSN 3030 -3907

Ilmiy jurnal OAK rayosatining 2024 yil 27 sentabrdagi 361-son qaroriga asosan 02.00.00 kimyo fanlari hamda 2025 yil 12 fevral 367- son qaroriga asosan 05.00.00 texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR:
Temirov Alisher Hoshim o‘g‘li – texnika fanlari falsafa doktori (PhD),Dotsent.
TAHRIRIYAT KENGASH RAISI:
Fozilov Sadriddin Fayzullayevich – texnika fanlari doktori, professor
TAHRIRIYAT KENGASH A’ZOLARI

TEXNIKA FANLARI/ TECHNICAL SCIENCES/ ТЕХНИЧЕСКИЕ НАУКИ

Bozorov G‘ayrat Rashidovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Abdurahmonov Olim Rustamovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Adizov Bobur Zamirovich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti, professor
Hayitov Ruslan Rustamjonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Jumayev Qayum Karimovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Berdiyev Dorob Murodovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor
Maxmudov Rafiq Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Tilloyev Lochin Ismatilloyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Raxmonov Qahramon Sanakulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Barakayev Nusratullo Rajabovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor.
Jo‘rayev Xayrullo Fayziyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Panoyev Erali Rajabboyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Ataullayev Sherzod Nabiullyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Malik Negmurodovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Axmedova Ozoda Bahronovna
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti.
Safarov Bahri Jumayevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Xaydarov Axtam Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Safarov Jasur Alijon o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.

KIMYO FANLARI/ CHEMICAL SCIENCES/ ХИМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Axmedov Voxid Nizomovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Umarov Baqo Bafoyevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Kodirov Abduaxad Abduraximovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Qurbonov Mingniqul Jumagulovich
Qarshi davlat Universiteti, dotsent
Turemuratov Sharibay Naurizbaevich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Bosh ilmiy kotibi, professor
Tursunov Kaxor Shonazarovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Do‘stov Hamro
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Panoyev Nodir Shavkatovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Olimov Bobur Bahodir o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Kasimov Sherzod Abduazimovich
Termiz Davlat Universiteti, professor.
Aliqulov Rustam Valiyevich
Termiz Davlat Universiteti, professor
Tropov Xamza Tursunovich
Samarqand Davlat Universiteti, professor

IQTISODIYOT FANLARI/ ECONOMICS/ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Nizamov Aslitdin Badreddinovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Boboyev Akmal Choriyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Ergashxojayeva Shaxnoza Djasurovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Saidaxmedova Nodira Ilxomovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Muxsinov Bekzod Toxirovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shakarov Qulmat Ashirovich
Renessans ta'lim universiteti,dotsent.
Jumaeva Zulfiya Qayumovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Norova Salomat Yusupovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Avezova Shaxnoza Maxmudjonovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Jalilov Jamshid G‘anijonovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, dotsent
Xasanova Gulruh Djumanazarovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.

PEDAGOGIKA FANLARI/ PEDAGOGICAL SCIENCES / ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ

Siddiqova Sadoqat G‘afforovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Zoyirov Erkin Xalilovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, DSc, professor
Gaffarov Feruz Hasanovich
Puchon Universiteti, *professor*
Ruziyev Davron Yuldashevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Muradova Firuza Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Yunusova Gulandon Samiyevna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
To‘xtayeva Zebo Sharifovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Navro‘zova Gulchixra Nigmatovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Uzoqova Laylo Polvonovna
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.
To‘raqulova Marjona Qiyom qizi
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Muradova Zarina Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Sanjar Aslonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shodiyev Jahongir Jo‘raqulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent
Gaffarov Laziz Hasanovich
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.

Tahririyat a’zolarning to‘liq ro‘yxati jurnalning www.devos.uz saytida keltirilgan.

Tahririyat hay’ati a’zolarining tarkibini o‘zgartirish hamda qo‘shimcha kiritish yoki tahririyat a’zoligidan chiqarish bosh muharrir tomonidan amalga oshiriladi.

ISSN 3030-3907

Development of science ilmiy jurnali 2024 yil 15 aprel kuni №256445 sonli guvohnoma bilan Davlat ro‘yxatidan o‘tgan.

To‘plam elektron ko‘rinishda (pdf formatida) mualliflarga taqdim etiladi. To‘plamga kiritiladigan maqolalarning mazmuni, ulardagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligiga hamda har qanday fikr - mulohazalarga mualliflarning o‘zlari mas’ul hisoblanadilar. Talablarga javob bermaydigan maqolalar to‘plamga kiritilmaydi. Tashkiliy qo‘mita maqola matnini qisqartirish, qisman tuzatish kiritish, seksiyalarga joylashtirish huquqiga ega.

ISSN 3030-3907

MASOFAVIY TA’LIMNING SOTSIAL PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Zavqiddin Gadoyev
OzDJTU, ijtimoiy fanlar kafedrasi oqituvchisi
E-mail: zavq0801@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada masofaviy ta’limning zamonaviy jamiyat sharoitidagi sotsial va psixologik xususiyatlari tahlil qilinadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta’lim jarayoniga joriy etilishi natijasida shaxsning ta’limdagi o’rni, o’qituvchi va o’quvchi o’rtasidagi muloqot shakllari, ta’lim olish imkoniyatlarining kengayishi hamda ijtimoiy tengsizliklarni bartaraf etish masalalari yoritilgan. Shuningdek, masofaviy ta’limning ijobiy va salbiy jihatlari, uning shaxsning ijodiy, tanqidiy fikrlashi va mustaqil ta’lim olish qobiliyatiga ta’siri ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: masofaviy ta’lim, axborot texnologiyalari, sotsial omillar, psixologik xususiyatlar, individuallashtirilgan ta’lim, uzluksiz ta’lim.

Annotation. This article analyzes the social and psychological characteristics of distance education in modern society. As a result of the introduction of information and communication technologies into the educational process, the role of the individual in education, forms of communication between the teacher and the student, the expansion of educational opportunities, and the elimination of social inequalities are highlighted. The positive and negative aspects of distance education, its impact on the individual's creative, critical thinking, and independent learning abilities are also revealed.

Keywords: distance education, information technologies, social factors, psychological characteristics, individualized education, continuing education.

Аннотация. В данной статье анализируются социально-психологические характеристики дистанционного образования в современном обществе. В результате внедрения информационно-коммуникационных технологий в образовательный процесс освещаются роль личности в образовании, формы общения между преподавателем и учеником, расширение образовательных возможностей и устранение социального неравенства. Также раскрываются положительные и отрицательные аспекты дистанционного образования, его влияние на творческие, критические и самостоятельные способности личности к обучению.

Ключевые слова: дистанционное образование, информационные технологии, социальные факторы, психологические характеристики, индивидуализированное образование, непрерывное образование.

KIRISH.

Hozirgi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta’lim tizimida tub o’zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Global internet

ISSN 3030-3907

tarmoqlari orqali axborot almashishning tezkorligi va keng qamrovliligi ta’lim jarayonini yangi bosqichga olib chiqdi. Masofaviy ta’lim ko’plab mamlakatlarda ta’lim tizimining ajralmas qismiga aylanib, ta’lim olish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirmoqda. Shu bois, masofaviy ta’limning sotsial-psixologik xususiyatlarini o’rganish dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi. Hozirda ko’pchilik oliy o’quv yurtlari o’zlarining internet sahifalarida o’quv kurslari, dasturlar, o’quv yurtining tashkiliy tuzilmasi, professor-o’qituvchilar tarkibi va boshqa ma’lumotlarni joylashtirishadi. Internet-iste’molchilarga oliy o’quv yurtining arxivlari va elektron kutubxonalariga erkin kirish imkoniyatini beruvchi masofaviy ta’lim rivojlanmoqda, bu esa dunyodagi ko’p mamlakatlarda ta’lim jarayonining ajralmas qismiga aylangan. Masofaviy ta’lim tizimi mutaxassislarni tayyorlash sifatini oshirish imkoniyatini beradi. Chunki bunda avtomatlashtirilgan tizim ta’lim va test dasturlaridan, maxsus elektron o’quv-metodik qo’llanmalardan foydalanishga yo’naltiradi. Shuningdek, ta’lim jarayonini ta’minlovchi metodik materiallarni tezkorlik bilan almashtirilishi, materiallarni elektron tashuvchilarda faol holatda saqlash imkonini berish bilan birga, internet orqali axborot olishning alьternativ manbalariga yo’l ochadi. Buning natijasida talaba va o’qituvchi o’rtasida ovozli aloqa, ovoz va video, elektron pochtadan foydalanib interfaol muloqot qilish imkoniyatini ham paydo bo’ldi. Talabgor kundalik ma’ruza va seminarlar ko’rinishidagi darslarda ishtirok etmay turib, mustaqil ravishda masofadan turib o’zi uchun qulay vaqtda ta’lim oladi. Masofaviy ta’limda o’qituvchi va talaba o’rtasidagi muloqot asinxron xususiyat kasb etadi. Ta’lim jarayonining asinxronlashuviga o’quvchi va o’qituvchi o’rtasidagi aloqani elektron pochta yoki kompyuter tarmog’i vositasida amalga oshirish orqali erishiladi.

G’arbdagi masofaviy ta’lim modellarining ishlash tajribasi ko’rsatadiki, unda yosh bilan, ijtimoiy va vaqt bilan bog’liq cheklovlarni bartaraf etish orqali ta’lim oluvchilar doirasini kengaytiradi va nafaqaxo’rlar hamda zarur bilimni olishda imkoni cheklangan toifalarning (masalan, nogironlarning) sotsial imkoniyatlarini kengaytiradi. Bularning barchasi yangi axborot texnologiyalaridan foydalanishning ijobiy imkoniyatlaridir.

Biroq ta’limda kompyuter texnologiyalaridan foydalanishdagi me’yorning buzilishi ta’limning virtuallashuviga olib keladi, ya’ni ta’limni faqat simulyatsion jarayonga aylantirib qo’yadi. Real ta’limdagi hissiy ta’sir, o’zaro muloqotning yo’qolib borishiga sabab bo’lishi mumkin.

Shu bilan birga masofaviy ta’limda shaxsning sotsiomadaniy statusida sodir bo’ladigan o’zgarishlarni ham o’rganish kerak. Hozirgi zamon sivilizatsiyasi rivojining eng muhim qonuniyatlaridan biri – shaxsning suverenlashib borishidir. Bugungi kunda shaxs o’zini jamiyat tomonidan ta’sir o’tkazish ob’ekti sifatida emas, balki o’z tarbiyasini, umumiy va kasbiy bilimlirini tinimsiz oshirib borishga

ISSN 3030-3907

ehtiyoj sezadigan, chinakam faol sub'ekt sifatida idrok etadi. Hozirgi davrda, kasb mazmuni, mutaxassisning tor kasbiy bilimlari tez fursatlarda eskirib qolayotgan sharoitda mustaqil ta'lim olish, qayta ixtisoslashishga bo'lgan ehtiyoj eng muhim hayotiy zaruratga aylanib bormoqda.

XX asr oxiri- XXI boshidagi shaxs o'z oldiga aniq maqsadlarni qo'yish hamda mustaqil bilim olish, o'zini aktuallashtirish va o'zini tarbiyalash orqali ularga erishishning usul va vositalarini topish qobiliyati bilan namoyon bo'ldi. Aynisa bu ijtimoiy-iqtisodiy sharoit keskin o'zgaradigan, jamiyatdagi barcha sohalari tinimsiz yangilanib borayotgan sharoitda yanada aniq ko'zga tashlanadi.

«Yangi axborot va komunikatsiya vositalari ta'limni tashkil etish va ishlash tamoyillarini o'zgartiradi. Bu vositalar yordamida u faol tarikibiy qism sifatida har qanday faoliyatga joriy etish mumkin. Kompyuter texnologiyalari axborotning tushunarliligi va rang-barangligini ta'minlaydi, ishlab chiqarish, ilmiy, boshqaruv, maishiy, ko'ngil ochar va istalgan boshqa faoliyat bilan yo'ldosh bo'ladigan ta'lim va mustaqil ta'lim jarayonlarini faollashtiradi. Muayyan darajadagi shartlilik bilan taxmin qilish mumkinki, ta'lim tizimini yangi institutsionallashtirish kutmoqda. Buning sababi shundaki, an'anaviy ta'limning bazaviy tizimi ilgarigi vazifasini bajara olmay qoldi, fundamental ta'limni yangilash muddatlari keskin kamaydi, bunday yangilanishga bo'lgan zarurat esa oshdi. Bu jarayonlar an'anaviy ta'lim faoliyatidan mustaqil ta'limga ko'chishi bilan bog'liqlikda kechmoqda»[1].

Masofaviy ta'lim, muayyan darajada, pedagogik tafakkurning asrlar davomidagi rivojlanishi jarayonida ta'lim tizimini jiddiy yangilab borishiga sabab bo'lgan inqilobiy g'oyalardan biridir. Buning sababi mazkur ta'lim vositasining nafaqat iqtisodiy samaradorligi, balki keng va rang-barang ta'lim xizmatlarining taqdim etilishi va o'quv materiallari manbalari bilan tanishishning yuqori samaradorligi bilan bog'liq. Gap shundaki, bu vosita bugungi kunda innovatsion iqtisodiyotning, axborotlashgan jamiyat industriyasining rivoji uchun zarur bo'lgan mustaqil ijodkor shaxsni tayyorlash va qayta tayyorlash imkoniyatlarini taqdim etmoqda. Inson omiliga mablag' sarflanishi postindustrial jamiyatda eng yuqori samara beradi, zero jamiyatdagi ishlab chiqarish sohasida asosiy boylik bilim bo'lib qolmoqda.

Ta'lim oluvchiga o'z shaxsiy imkoniyatlarini to'liq va to'g'ri ro'yobga chiqarishiga ko'maklashuvchi masofaviy ta'limning asosiy mohiyati shundaki, bunda shaxs o'quv jarayonining asosiy va bosh sub'ektiga aylanadi. Ma'lumki, boshqa pedagogik texnologiyalardan farqli o'laroq, masofaviy ta'lim uzoqdan turib ta'lim jarayonini amalga oshirishni nazarda tutadi. Buning uchun esa, dastlabki

[1] *Зборовский Г.Е., Шуклина Е.А.* Образование как ресурс информационного общества // Социол. исслед. 2005. № 7. С. 113.

ISSN 3030-3907

shart sifatida kasbiy va madaniy maqsadlarini to'g'ri va to'liq belgilab olgan shaxsdan ancha yuqori darajadagi o'zligini anglash talab etiladi. Mazkur shart zamonaviy pedagogikada eng muhim g'oyalardan biri sifatida ilgari suriladi va zamonaviy uzluksiz ta'lim tizimida "katta yoshdagilar ta'limi" ham ayni shu asosda quriladi. "Muayyan yoshdan boshlab, suveren shaxsga, betakror individga aylanayotgan inson o'zini o'zi shakllantirib, takomillashtira boshlaydi va yaratgan tomonidan berilgan ruhiyati va tanining qobiliyat va iste'dodlarini rivojlantiradi"[2].

Masofaviy ta'lim ijodiy tafakkur yo'lida paydo bo'lishi mumkin bo'lgan to'siqlarni (kulgili yoki aqlsiz bo'lib tuyulishdan qo'rqishni, tasavvur va tashabbusni bo'g'adigan muvaffaqiyatsizlikdan qo'rqish tuyg'usini) bartaraf etadi; nostandart sharoitlardagi faoliyat yo'nalishini o'zgartirish yo'lidagi qiyinchiliklarni bartaraf etadi. Kompyuter qarshisida yolg'iz qolganda qarorni ortga surish, o'ziga bergan benihoya yuqori bahoni pasaytirish unchalik qiyin bo'lmaydi. Shaxs ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish bilan birga, masofaviy ta'limda tanqidiy fikrlashga to'sqinlik qiladigan omillarni (jazodan qo'rqish, chunki o'zgalarning fikrini tanqid ostiga olar ekanmiz, biz o'z fikrlarimiz ham tanqidga uchrashidan qo'rqamiz; o'z g'oyalarini noto'g'ri baholashdan qo'rqish; kimningdir fikrini tanqid qilish bilan odobsizlik qilib qo'yishdan qo'rqish va h.k.ni) bartaraf etishga sharoit yaratiladi. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish bugungi madaniyatning ommalashuvi sharoitida ayniqsa dolzarbdir. Taniqli frantsuz faylasufi J.Bodriyyar shunday yozadi: "Tanqidiy fikr baholaydi va tanlaydi, u farqlarni aniqlaydi va selektsiya yordamida ma'no haqida jon kuydiradi. Omma (olomon) esa boshqacha ish tutadi: ular tanlamaydi, ular farqlarni emas, farqlanmaganlikni yuzaga keltiradi, tanqidiy baholashni talab etadigan ma'lumotdan ko'ra gipnoz holatiga tushiradigan mediumni afzal ko'radi. Gipnotik holat mazmundan sayoz bo'ladi va ma'no kamaygan sari rivojlanib boradi. U axborot, g'oya va haqiqat bo'lgan joyda emas, balki medium, sanam va simulyakr hukmronlik qilgan joyda ko'payadi. Biroq ayni shu makonda ommaviy axborot vositalari ham ishlaydi. Gipnozdan foydalanish ular faoliyatining tamoyilidir va unga tayanib ular o'ziga xos yopirilma zo'ravonlik manbaiga – ma'no ustidan zo'ravonlik, ma'noga asoslangan muloqotni inkor etuvchi va butunlay boshqa turdagi muloqotni o'rnatuvchi zo'ravonlik manbaiga aylanadi"[3].

Masofaviy ta'lim shaxsga kasbiy jihatdan ham, umummadaniy jihatdan ham o'zini o'zi shakllantirishga, o'zini rivojlantirishga, bu boradagi ehtiyojlarini qondirishga sharoit yaratadi. Avvalambor, ta'lim jarayonining moslashuvchan va variativ sxemalari, usullari va mazmunlarini taqdim etish borasidagi keng

[2] *Сапунов Б.* Встать в строй // Высшее образование в России. 1997. № 3. С. 108.
[3] Baudrillard J. In the Shadow of the Silent Majority, or The End of the Social. P. 43-44

ISSN 3030-3907

imkoniyatlarni qayd etish lozim. Bundan tashqari, masofaviy ta’lim dasturlari mustaqil ta’lim olish faoliyatiga yuqori darajadagi tayyorgarlikka ega bo’lgan individlarga mo’ljallangan. Buning uchun esa o’quv ishlarini o’ziga qulay vaqtga mustaqil rejalashtirish, tegishli ma’lumotlardan foydalana bilish, ma’lumotlar bazasi bilan ishlash, doimiy ravishda o’zini nazorat qilib turish talab etiladi. Shu asosda yaratilgan masofaviy ta’lim dasturlari shaxsni mutaxassis sifatida ijodiy shakllantirish vazifasini bajarishning zarur shartidir.

Shuningdek, ta’lim texnologiyasi, ya’ni usullar, vositalar va tashkiliy shakllar tizimi bilan bog’liq bir qator muammolarni hal etish zarur. Bunda jamiyat ikki xavf orasida qoladi: bir tomondan, texnika rivojining «mantig’i»dan kelib chiqadigan ta’limnig yangi axborot texnologiyalaridan foydalanishga texnokratik yondoshuv xavfi, ikkinchi tomondan esa, masofaviy ta’lim shaklini an’anaviy, masalan, sirtqi ta’lim shakli bilan adashtirish, ishning shakl va usullarini ular o’z mazmunini ham, shaklini ham o’zgartirgan sharoitda davom ettirish.

Navbatdagi holat masofaviy ta’limning moslashuvchan va individuallashtirilgan xususiyati bilan belgilanadiki, bu ta’lim olayotgan shaxsning harakatlarini konkret, o’zi uchun muhim bo’lgan hayotiy va kasbiy ehtiyojlar bilan bog’liq muammolarini hal etishga qaratish imkoniyatini beradi. O’qituvchi o’z maqsadlarni o’zi belgilaydi, o’quv bilan bog’liq vazifalarni hal etish uchun zarur materiallar va talablar bilan ta’minlashga sharoit yaratish roli yuklatiladi. Masofaviy ta’lim bo’yicha zamonaviy o’quv dasturlari ularni bevosita hayotga tadbiq etilish g’oyasiga tayanishi lozim. Ana shunda o’quv jarayonini tashkil etishning bosh asosini o’qitishni individuallashtirish, har bir ta’lim olayotganning konkret maqsadlariga yo’naltirilganligi tashkil etishi mumkin.

Zamonaviy masofaviy ta’lim tizimining genezisi va rivoji jahon ta’lim tizimidagi tendentsiyalarga javob beradi. Masofaviy ta’limning shaxs ijodiy potentsialini to’liq ro’yobga chiqarishga qaratilgan gumanistik yo’nalishi O’zbekiston ta’lim tizimi an’analari bilan, uning nafaqat o’z kasbining ustasi, balki mutaxassisning shaxsini ham shakllantirishga qaratilgan fundamental vazifalari bilan bog’liq. Shu yerda, ta’lim paradigmalarining o’zgarishi haqida gapirganda, unda inson ijtimoiy, siyosiy yoki ishlab chiqarish mashinasining bir bo’lagi sifatida emas, o’z maqsad va intilishlarini amalga oshirishni ustuvor bilgan shaxs sifatida tarbiyalanadi. Nafaqat o’qituvchi, balki avvalambor o’quvchi tashabbuskor tomon bo’lgan ta’lim tizimiga o’tish eski ta’lim stereotiplarining buzilishiga hamda iste’molchining o’zi ta’limning shakli va usullarini, o’qituvchi bilan muloqot qilish vaqti va shakllarini o’zi tanlaydigan holatga olib keladi .

Masofaviy ta’lim, ta’lim jarayonidagi yangi paradigmaning asosi sifatida namoyon bo’ladi. Uning marakazida o’quv materialining mazmuni, o’qitish predmetlari, shakllari va usullari emas, balki ayni ta’lim oluvchining shaxsi, uning

ISSN 3030-3907

individualligi, o'quv jarayonida o'z salohiyatini namoyon etishi turadi. Bu kabi shaxs rivojlanishiga yo'naltirilgan yondoshuv ta'limning individuallashuvi bilan bog'liq, chunki shaxsning ruhiy-fiziologik va kognitiv xususiyatlari, qadriyatlari va individual ehtiyojlarini hisobga olishni nazarda tutadi. Bu bilan yangi davrning gumanistlari tomonidan e'lon qilingan g'oya, ya'ni inson, uning shaxsi - taraqqiyotning oliy maqsadi va qadriyati ekanligi g'oyasining moddiy asosi barpo etilmoqda. Masofaviy ta'limning gumanitar mohiyati ham shaxsga o'z ijodiy salohiyati va qobiliyatlarini to'liq namoyon etish uchun ta'limning mos shaklini berishi bilan ajralib turadi. Bunda shaxs erki, mustaqilligining zamonaviy g'oyasi o'z ifodasini topadi va o'z navbatida, uni amalga oshirishning siyosiy yoki iqtisodiy shakllarini, balki ta'lim jarayonida o'zini shakllantirish va takomillashtirish imkoniyatlarini nazarda tutadiki, bu madaniyatni shakllantirish faoliyatining eng muhim shakllaridan birini tashkil etadi.

Masofaviy ta'limda individual traektoriyalarni hisobga olib, metodik jihatdan o'quv rejasida fanlarning qat'iy ro'yxati bo'lmaydi. Albatta, bunda minimal hajmdagi kasbiy, tabiiy va gumanitar bilimlarni berish nazarda tutiladi va shular asosida ta'lim oluvchiga alohida o'zi uchun zarur hisoblagan bilim hamda ko'nikmalar beriladi. Shu o'rinda yana bir muhim holatlarni ham qayd etish kerak: tor doiradagi kasbiy bilimlarni olish jarayonida erkin va moslashuvchan masofaviy ta'lim loyihasi shaxsda ijodkorlik sifatlarini takomillashtirish imkoniyatini bersa, kasbiy madaniyatni shakllantirish zamonaviy bilimlar va gumanistik amaliy qadriyatlar bilan uyg'unlashtiriladi. Professionallashtirish esa, nafaqat kasb egasi-mutaxassisni reproduktiv shakllantirish, balki o'z kasbiy faoliyatining usullari va shakllarini yangilab borishga qodir bo'lgan ijodkor individni shakllantirish jarayonidan iborat bo'ladi.

Masofaviy o'qitish jarayonini kompyuter vositalaridan foydalangan holda o'z vaqtini rejalashtiradigan o'quvchining tezkor, maqsadga yo'naltirilgan, nazorat qilinadigan mustaqil faoliyati belgilaydi. Masofaviy ta'limning ichki turtki omili bo'lib bilim olishga bo'lgan anglangan ehtiyoj hizmat qiladi va ayni na shu anglangan ehtiyoj tufayli o'quvchi ta'lim jarayonida yetakchi bo'ladi va o'zining o'quv jarayoniga sarf etiladigan vaqtini o'zi taqsimlaydi.

Virtual makonda kechadigan vaqt bilan bog'liq jarayonlar insonning individual vaqtiga va jamiyatning sotsial vaqtiga aks ta'sir o'tkazadi. Misol tariqasida bugungi kundayoq ijtimoiy organizmning sotsial-profesional strukturasini belgilayotgan masofaviy ta'limni keltirish mumkin. Shu jihatdan ishlamayotgan fuqarolarning bo'sh vaqtlari tahlili va uni masofaviy ta'lim vositasida band qilish imkoniyatlari diqqatga sazovor.

Masofaviy ta'lim odamlarning ijtimoiy voqelikda sodir bo'layotgan o'zgarishlarga moslashishlariga va ularning samarali bandligini ta'minlashga

ISSN 3030-3907

jiddiy yordam berishi mumkin. Nafaqa yoshiga yetgan shaxslarning bo'sh vaqti tarkibi o'zgaradi, ularning raqobatbardoshligini oshirish, ko'p yilar oldin olgan bilim va kasbiy malakalarini yangilash imkoniyati paydo bo'ladi. Masofali ta'limning g'arbdagi modellarining ishlash tajribasi ko'rsatadiki, ular keksa yoshdagilarda mavjud yosh, vaqt va ijtimoiy voqelik bilan bog'liq to'siqlarni bartaraf etish imkoniyatini beradi va nafaqat nafaqaxo'rlarning, balki zarur ta'limni olishga imkoniyatlari u yoki bu darajada va u yoki bu sabab bilan cheklangan odamlarning sotsial imkoniyatlari doirasini jiddiy kengaytirishga yordam beradi.

Nazarda tutish lozimki, bunday shakldagi ta'lim jismoniy kamchiliklarga ega bo'lgan kishilar va nogironlarning ijtimoiy muhitga nisbatan to'liq moslasha olishiga yordam beradi. Yuridik jihatdan, albatta, ular oliy o'quv yurtlariga kirish huquqiga ega, ammo bundagi real raqobat muhiti shundayki, ularning bunga imkoniyatlari amalda yo'qqa chiqadi. Chunki jismoniy kamchiliklarga ega bo'lgan kishilar va nogironlarning yashash tarzi kamharakat bo'lib, ularning xatto sirtqi o'qish sharoitiga ham moslashishi qiyin. Masofaviy ta'limning o'rni o'zgacha, chunki u iste'molchiga qulay vaqtda individual reja asosida, qulay sur'at va maromda to'laqonli ishlash imkoniyatini beradi. Bu tipdagi ta'limning modulli xususiyati o'quv rejasini odamlarning ma'naviy va kasbiy ehtiyojlari bilan muvofiqlashtirish imkoniyatini ham beradi. Aholining katta qismini tashkil etgan eski mutaxassisligi bo'yicha ishlash imkoniyatini yo'qotgan, qayta ixtisoslashishga muhtoj bo'lgan odamlarni ham yoddan chiqarish kerak emas. Shunday qilib, mazkur sharoitidagi masofaviy ta'limning afzalliklari shu bilan bog'liqki, uning yordamida yosh, ijtimoiy, tender xususiyatlar bilan bog'liq ziddiyatlar yo'qoladi, o'qitishning modulli individuallashtirilgan shakllaridan foydalanish imkoniyati paydo bo'ladi, bu esa, o'z navbatida, shaxs rivojini optimallashtiradi, uning ijtimoiylashuvi, madaniy muhitga moslashishi, yetuk kasb egasi bo'lish jarayonlarini tezlashtiradi. To'g'ri, masofadan turib o'qitishning sotsiomadaniy natija va oqibatlari ohirigacha o'rganilmagan. Shunday bo'lsada rivojlangan dalatlarda qo'lga kiritilgan natijalar bu ta'lim shaklining istiqboli borligi, uning zamonaviy jamiyatda kuzatilayotgan inqiroziy jarayonlarni yumshatishi mumkinligi haqidagi xulosani chiqarish imkoniyatini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Oliy ta'lim tashkilotlarida masofaviy ta'lim shaklini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida Nizom. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 03.10.2022 yildagi 559-son. https://lex.uz/docs/-6221502
2. Begimkulov U.Sh. *Pedagogik ta'lim jarayonlarini axborotlashtirishning nazariy-metodik asoslari*. — Toshkent: Fan, 2007.
3. Zaychenko T.P. *Masofaviy o'qitish asoslari: nazariy va amaliy asos*: O'quv qo'llanma. — SPb.: RSPU nashriyoti, 2004.

ISSN 3030-3907

4. Olimov Q.T., Uzoqova L.P. va boshqalar. *Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi (Masofaviy ta'lim elementlari bilan)*. — Toshkent: Fan, 2004.
5. Taylakov N.I. *Uzluksiz ta'lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish muammolari*. — Toshkent, 2011. [1, 2]
6. Baudrillard, J. (2000). В тени молчаливого большинства, или Конец социального (N. V. Suslov, Trans.). Izd-vo Ural. un-ta
7. Raxmatova S.T. Ta'lim tizimida masofaviy o‘qitish tizimining ahamiyati // Cyberleninka ilmiy jurnali. — 2022.
8. Aripov M., Muhammadiev J. Masofaviy ta'lim tizimi va uni boshqarish texnologiyalari // Nukus DPI ilmiy to‘plami. — 2021.
9. Guliston Davlat Universiteti axborot portali. Masofaviy ta'lim va masofaviy o‘qitishning konseptual asoslari: Ma'ruzalar matni. — Guldu.uz, 2023.

ISSN 3030-3907